

EKOLOGIYANI ASRASHDA JAMIYATIMIZNING TUTGAN O‘RNI

Yormatov Jasurbek Norqul o‘g‘li

Termiz Davlat Universiteti Yuridik fakulteti talabasi

***Annotatsiya.** Ekologiyamizni, tabiatimizni asrashda yer yuzida mujassamlashgan barcha tirik jonlar munosabatga kirishishi kerak bo‘ladi. Bu nima degani? Har bitta yashab turgan mavjudot ya‘ni insonlarmi, hayvonlarmi, o‘simlikmi o‘z vazifasini bajarishi kerak. Manashular bilan muvozanat saqlanib turadi. Ushbu maqolada yuqorida sanab o‘tganlarim orasidan eng ongli va oliy tafakkur egasi bo‘lmish insonlarning qanday qilib bu munosabatga kirishishining tahlili berilgan.*

***Kalit so‘zlar:** Populyatsiya, biotsenoz, biogeotsenoz, biosfera, Konstitutsiya, modda, kodeks, Velosiped madaniyati, magnit qarmoq.*

Eng birinchi navbatda aniqlashimiz kerak bo‘lgan narsa ekologiya o‘zi nima bu?. Ekologiya (qadimgi yunoncha: - “uy”, “turar joy”) degan manolarni anglatadi. Organizmdan har xil darajada yuqori turadigan sistemalar, populyatsiyalar, biotsenozlar, biogeotsenozlar va biosferaning tuzilishi, ularda kechadigan jarayonlarni o‘rganadigan biologiya fanlari majmui. O‘z nomidan ko‘rinib turibdiki ekologiya uy, turar joy degan ma‘nolarni anglatayotgan bir paytda har bir tafakkur qiluvchi inson o‘zining mukammal hayoti va oilasi uchun uy joyini asrashga majburdir. Qachonki oila mustahkam bo‘lishi uchun farovvon hayot kechirish kerak. Farovvon hayot kechirish uchun esa inson sog‘lom bo‘lishi kerak. Qachon va qayerda inson sog‘lom bo‘ladi? Havosi musaffo, daraxtlari ko‘p, o‘simlik va hayvonot dunyosi yaxshi, yashillikka burkangan yurtda sog‘lom bo‘laoladi va bunday yurtga jamiyatimizdagi sog‘lom fikrlaydigan insonlar qatlami talpinadi. Bu borada birinchi Prezidentimiz I.Karimov bu masalaga alohida e‘tibor qaratib: “Ekologiya hozirgi zamonning keng miqyosdagi keskin ijtimoiy muammolaridan biridir. Uni hal etish xalqlarning manfaatlariga mos

bo‘lib, sivilizatsiyaning hozirgi kuni va kelajagi ko‘p jihatdan ana shu muammoning hal qilinishiga bog‘liqdir” , - degan edi. Tarixga nazar tashlaydigan bo‘lsak, “ekologiya” terminini 1866-yilda nemis olimi E.Gekkel organizmlarning atrof muhit bilan munosabatlarini belgilash uchun taklif etgan. Ekologiyaning fan sifatida yuzaga chiqishi 18-19-asrlarda yashagan naturalistlar va geograflarning ishlari bilan bog‘liq. Naturalism – (fransuzcha: naturalism; lotincha: naturalis – tabiiy) – 19-asrning oxirgi choragida Yevropa va AQSH adabiyoti va san’atida yuzaga kelgan oqim ijodiy metod; real borliqni ob’yektiv, aniq va hissiz aks ettirishga intilgan. Asosiy tasvir ob’yekti – inson, uning tabiiy va fiziologik hayot tarzi; tabiat va atrof muhitni uning maishiy va moddiy muhiti deb bilgan. 19-asrning oxiri va 20-asrning boshlarida tadqiqotchilar ayrim omillar, ayniqsa, iqlimning organizmlarning tarqalishi va dinamikasiga ta’sir etishiga e’tibor berishdi. Ayni shu davrda organizmlarning bir butun majmui bo‘lgan tabiiy biotsenozlar to‘g‘risidagi tasavvurlar shakllana boshlaydi. Biotsenozlar – shartsharoiti bir xildagi muhitga moslashib olgan va bitta joyning o‘zida birga yashaydigan barcha organizmlar. Ekologiya 20-asrning 20-30-yillarida jadal rivojlana boshladi. Bir-biri va notirik atrof muhit bilan o‘zaro bog‘langan organizmlar komplekslari to‘g‘risidagi tasavvurlarning shakllanishi ingliz botanigi A. Tenslining “ekosistema” (1935) va rus botanigi V.N. Sukachevning “biogenotsenoz” (1942) tushunchalarining yaratilishi bilan bog‘liq. Biosfera ekologik tizim sifatida qaralganda, biosfera bu Yer sayyorasidir. Biosferani o‘rganuvchi ekologlar global qonuniyatlarni, masalan, iqlim yoki turlarning tarqalishi, ya’ni ekotizimlar o‘rtasidagi o‘zaro ta’sirlarni hamda global iqlim o‘zgarishi kabi butun dunyoga ta’sir ko‘rsatuvchi hodisalarni o‘rganadi. Ekotizim mintaqadagi, jamoadagi barcha organizmlarga ta’sir etuvchi abiottik omillardan tashkil topgan barcha organizmlarni o‘z ichiga oladi. Ekotizimni o‘rganuvchi ekologlar ko‘pincha energiya oqimi va ozuqa moddalarini qayta ishlashga e’tibor berishadi. To‘g‘ri bu gaplarni bir qarashda tushunmaslik mumkin, shuning uchun insonlarga oddiyroq tilda yozilgan va tushuntirilgan adabiyotlarni, o‘quv darsliklarni chop etishni yo‘lga qo‘yish kerak. Xalqimiz orasida shunday madaniyat yaratish kerakki, onasini qanday asrasa, o‘z tabiatini ham shunday asrash kerak. Kerak

bo'lsa, mahallalarda ekologiya faollari aholi bilan ochiq muloqatga kirishish vaqti keldi. Hozirgi kunda yurtimizda juda katta ob'yektdagi qurulishlar bo'lishi natijasida tabiiy tabiatni sun'iy tabiatga aylantirib qo'yishmoqda. Misol uchun, azim Toshkent shahrida bo'layotgan holatlardan, insonning toza havodan to'yib nafas olishiga ko'maklashadigan ko'plab miqdordagi daraxtlarning kesilib ketishi insonning ko'nglini xira qiladigan holatdir. Shaxsiy avtomashinlarning ko'payib ketishi natijasida iqlim o'zgarishi, havoning ifloslanishi kelib chiqmoqda. Bularning hammasini qaysidir ma'noda inson omili bilan bog'liq. Inson omili deyishimning sababi bu tizimni boshqarayotgan raxbarlar bo'layotan voqealarga yo'l qo'yib berayapti. Davlatimiz qonunchiligiga nazar tashlaydigan bo'lsak, Konstitutsiyamizning 55-moddasi. Yer, yer osti boyliklari, suv, o'simlik va hayvonot dunyosi hamda boshqa tabiiy zaxiralar umummilliy boylikdir, ulardan oqilona foydalanish zarur va ular davlat muhofazasidadir. Demak, yurtimiz tabiati davlat muhofazasida uni buzganga davlat tegishlicha jazo qo'llaydi. O'zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksining 198-moddasi 3-bandida ekinzorlarni, o'rmonlarni, daraxtlarni yoki boshqa o'simliklarni qasddan shikastlantirish, poyhon qilish, nobud qilish ko'p miqdorda zarar yetkazilishiga sabab bo'lsa, - BHMning 50 baravaridan 200 baravarigacha miqdorda jarima yoki 300 soatdan 360 soatgacha majburiy jamoat ishlari yoki 2 yildan 3 yilgacha axloq tuzatish ishlari yoxud 1 yildan 3 yilgacha ozodlikdan cheklash yoki 3 yilgacha ozodlikdan mahrum qilish bilan jazolanadi. Eng qiziq joyi shu moddaning 4 bandida yetkazilgan moddiy zararining o'zni 3 karra miqdorida qoplangan taqdirda, ozodlikni cheklash va ozodlikdan mahrum qilish tariqasidagi jazo qo'llanilmaydi deyilgan. Jinoyat kodeksining bu bandi puldor aholi qatlami yoki tadbirkorlarimiz uchun ayni muddao. O'zlarining shaxsiy bizneslari uchun yurtimizning hohlagan joyidagi tirik tabiatni yoq qilib tashlab jarima to'lab qutilib qolaveradimi. Vaholangki, o'rgangan ko'ngil o'rtansa qo'ymas. Qonunlarni qo'llash vaqti keldi. Agarda, bu huquq normalariga o'zgartirish yoki qo'shimchalar kiritilmas ekan, yurtimizning so'lim tabiati jar yoqasiga kelib qolishi mumkin. Yurtimizda velosiped qatnov tizimini qayta isloh qilish kerak. Yo'llarda velosiped

qatnovi uchun alohida yo‘laklarni tashkil qilishi shart va velosipedda harakatlanishni modernizatsiya qilish kerak. Insoniyat uchun andoza qilib Niderlandiya hukumatining “velosiped siyosati” ni olaman. Niderlandiya velosipedchilar mamlakati. Shu sababli, hukumat ish beruvchilar, munitsipalitetlar, ishlab chiqaruvchilar va boshqa ko‘plab sohalarga ta’sir ko‘rsatadigan keng qamrovli “velosiped siyosati” ni ishlab chiqqani tabiiydir.

“Velosiped madaniyati”.

Gollandiyada odamlardan ko‘ra ko‘proq velosiped bor 22 million (mamlakat aholisi 17,4 million kishi). Velosiped haydash sog‘liq uchun foydalidir, bu ayniqsa ko‘proq odamlar ortiqcha vaznga ega bo‘lgan mamlakatda muhimdir. Bundan tashqari, velosiped avtotransport vositalaridan ko‘ra qulay va foydaliroqdir. Chunki velosiped atrof tabiiy muhitga zaharli tutunlarni chiqarmaydi.

Atrof muhitni asrash, avaylashda insoniyatning roli manashu jarayonda munosabatga kirishishiga bog‘liq. Fransiyada faol aholi va ekologiya faollari insoniyat uchun hayot manbai bo‘lgan daryo, kanallardagi suvni zamonaviy usulda ya’ni magnit qarmoqlar orqali tozalashini yo‘lga qo‘ygan. Bu davlatning qonunida yoki fuqarolarning majburiyatida belgilanmagan. Bu fransuz aholisining huquqiy ong va huquqiy madaniyatini yaxshi rivojlanganligidan darak beradi. Fransuz xalqi o‘z tashabbuslari bilan ona tabiatini yashillashishi uchun o‘zining qimmatli vaqtlarini ayamay sarflashyapti. Zero o‘z vaqtida qilingan to‘g‘ri harakat kelajak mevasidir.

Foydalanilgan saytlar.

1. <https://lex.uz>
2. <https://kun.uz>
3. <https://norma.uz>